

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MUHIM KOMMUNIKATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI QO'LLASH

Ibragimova Zarinabonu Nizomjon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.022>

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonparvarlik tamoyili asosida bo'lajak pedagoglarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi ya'ni bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetitsiyasini shakllantirishning metodik assoslari alohida yoritilgan va chet el olimlarning pedagogik qarashlari bayon qilingan. Kommunikativ, lingvistik va pragmatik kompetensiyaning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan. Bundan tashqari, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi kommunikativ mashqlar va ularning ahamiyati ochib berilgan.. Ularni tayyorlash ta'lim jarayonining asosiy vazifasi bo'lib, pedagogning kasbiy va psixologik tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim masalalar yoritilgan .

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim, tarbiya, pedagog, kommunikativ, kompetentlik, kompetensiya, muloqot, munosabat, madaniyat, yondashuv, ta'lim oluvchi, o'zaro ta'sir, pragmatik kompetensiya, lingvistik kompetensiya, o'qish, gapirish, yozish, tinglash, kommunikativ mashqlar.

APPLICATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCES IN THE DEVELOPMENT OF IMPORTANT COMMUNICATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS

Ibragimova Zarinabonu

Shahrisabz state pedagogical institute 2nd year master in the field of theory and history of pedagogy In the development of important communicative qualities of future teachers-the application of communicative competencies

Abstract: This article examines the development of communicative competence of future pedagogues in the process of professional-pedagogical training based on the principle of humanitarianism, that is, the methodical foundations of the formation of communicative competence of future pedagogues are separately covered, and the pedagogical views of foreign scientists are described. The interdependence of communicative, linguistic and pragmatic competence is scientifically based. In addition, communicative exercises that serve to form communicative competence in students and their importance are revealed. Their preparation is the main task of the educational process, and important issues aimed at the formation and development of communicative competence, which is an integral part of the professional and psychological training of the pedagogue. illuminated.

Key words: education, pedagogue, communicative, competence, communication, attitude, culture, approach, learner, interaction, pragmatic competence, linguistic competence, reading, speaking , writing, listening, communicative exercises.

ПРИМЕНЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В РАЗВИТИИ ВАЖНЫХ КОММУНИКАТИВНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Ибрагимова Заринабону Низомжоновна

Магистрант 2 курса по специальности «Теория и история педагогики»

Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие коммуникативной компетентности будущих педагогов в процессе профессионально-педагогической подготовки на основе принципа гуманизма, то есть отдельно освещаются методические основы формирования коммуникативной компетентности будущих педагогов, а также педагогическая изложены взгляды зарубежных ученых. Взаимозависимость коммуникативной, языковой и прагматической компетентности научно обоснована. Кроме того, раскрыты коммуникативные упражнения, служащие формированию коммуникативной компетентности у студентов, их значение, их подготовка является основной задачей образовательного процесса, а также важные вопросы, направленные на формирование и развитие коммуникативной компетентности, которая является неотъемлемой частью учебного процесса. Профессионально-психологическая подготовка педагога.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагог, коммуникативность, компетентность, общение, отношение, культура, подход, учащийся, взаимодействие, прагматическая компетентность, лингвистическая компетентность, чтение, говорение, письмо, аудирование, коммуникативные упражнения

O'sib kelayotgan yosh avlodning yetuk inson bo'lib kamol topishida pedagoglarning o'rni beqiyosdir. Hozirda dunyoning oldi mamlakatlar ta'lim tizimiga oid tajribasini o'rganish, milliy ta'lim tizimimizga mos bo'lgan jihatlarini amaliyotga tatbiq qilish bizdagi ta'lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun juda muhimdir. Biz uchun taniqli bo'lgan rus pedagogi S.Suxomlinskiy shunday deb aytgan "Yaxshi murabbiy bo'lgan taqdirdagina yaxshi pedagog bo'lismumkin. Pedagogning butun pedagogik madaniyati, bilimi tarbiyaviy ishda kor qilmasa befoyda yukka aylanib qoladi." Pedagogning tajribali mutaxasis sifatidagi kommunikativ kopetensiyasini shakllantirish yosh avlodni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini egallashlariga, sifatlita'lim olishlariga yordam berishi kerak, ammo bunday vaziyatda eng muhimi shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. Bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish pedagoglarni tayyorlashdagi muhim muammolar qatorida o'ziga xos o'rinn tutadi. Bo'lajak pedagoglarni amaliy, metodik, psixologik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan boyib bormoqda. Shu uchun ham pedagoglarni tayyorlash ta'lim jarayonining muhim vazifasi bo'lajak pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblangan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak Bundan tashqari kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan anglashimiz mumkinki, til ta'limiga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Biz quyida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasining paydo bo'lish tarixi, mazmuni va pedagog olimlarning fikrlariga to'xtalamiz. "Kommunikativ kompetensiya" atamasi ilmiy adabiyotga D.Xayms tomonidan kiritilgan. O'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan 1972-yilda "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi kiritiladi. Kompetensiya/kompetentlik kategoriyalarini tilni, ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalanila boshlandi.

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bugungi kunga qadar "kommunikativ kompetesiya" tushunchasiga bir qanqa chet el va mahalliy pedagoglar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Pus pedagogigi

S.A.Gilmanova o‘zining ilmiy faoliyatida nolingistik fakulteti talabalarining chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilgan va ko‘plab ta’riflarni keltirgan. Pedagogika fanlari nomzodi E.I.Litnevskaya “kommunikativ kompetensiya” atamasiga “nutq faoliyatining barcha turlarini hamda og‘zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma’lum bir yosh uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot sohalari va vaziyatlarida tildan foydalananishning asosiy ko‘nikmalari va malakalarini egallash» deb ta’rif beradi. M.R.Lvovning ta’kidlashicha, “Kommunikativ kompetensiya – til (ona tili va ona tili bo‘lmagan), uning fonetik xususiyatlari, leksik va grammatik birliklari, stilistikasi, nutq madaniyati, ushbu til vositalariga ega bo‘lish va nutq faoliyati turlarini – nutqni bilishni bildiruvchi tushunchadir. U kommunikativ kompetensiaga tabiiy nutq faoliyati natijasida va maxsus tayyorgarlik natijasida erishiladi – deb ta’kidlaydi. Bir qancha pedagog va lingvistlar kommunikativ kompetesiyanı bir qancha tarkibiy qismlarga ajratishgan. I.L.Beam kommunikativ kompetensiyanı quyidagilarga ajratadi:

- 1) lingvistik;
- 2) nutqiy;
- 3) ijtimoiy-madaniy;
- 4) kompensatsiya kompetensiysi.

M.Z. Biboletova chet tillarini o‘rganish nuqtayi nazaridan kommunikativ kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini taklif qiladi:

- nutqiy kompetensiya
- nutq faoliyatining to‘rtta asosiy turi (gapishtirish, tinglash, o‘qish, yozish) bo‘yicha muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- til kompetensiysi
- o‘quv dasturiga muvofiq yangi til vositalarini (fonetik, imlo, leksik, grammatik) o‘zlashtirish;
- o‘rganilayotgan tilning lingvistik hodisalari, fikrni ona va chet tillarida ifodalashning turli usullari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish;
- ijtimoiy-madaniy / madaniyatlararo kompetensiya;
- kompensatorlik kompetensiysi - axborotni qabul qilish va uzatishda til vositalarining yetishmasligi sharoitida vaziyatdan chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirish (o‘quvchini murakkab holatda vaziyatdan oson chiqish kompetensiyasidir).

Psixologik nuqtayi nazardan kommunikativ kompetensiya, eng avvalo, shaxsning nutq faoliyatini uning samarali shakllarida muloqot holatiga adekvat (tenglashgan, mos, aynan bir, o‘xhash) tashkil eta olish qobiliyatidir Ko‘pgina adabiyotlarni tahlil qilganimizda shunga amin bo‘ldikki, ko‘pgina xorijiy tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra kommunikativ kompetensiyanı shakllantirish vazifasi chet tillarini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladi deb qaraladi. Shunday pedagoglardan biri I.A.Zimnyayadir. U kommunikativ kompetensiyanı “shaxsning muloqotda kommunikativ faoliyati subyekti rolini o‘ynash qobiliyati” deb belgilaydi. Bizning fikrimizcha esa, kommunikativ kompetesiya – bu o‘quvchilarning o‘zgalar nutqini tushunishi, o‘zining og‘zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo‘lishi, nutq vaziyatiga mos bo‘lgan fikrlarni ayta olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi. Kommunikativ kompetensiya nafaqat chet tillarini, balki ona tilini o‘rganish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biridir. Fikrimiz dalili sifatida shuni aytishimiz mumkinki, “Maktabgacha, umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus, professional va olyi ta’lim tizimlarida ona tili fanining uzviyligini ta’minlash konsepsiysi”da ona tili fani orqali o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiya rivojlantirilishi ta’kidlangan. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fikrlashga, o‘zgalar fikrini tushunishga, anglaganlarini tizimli ravishda og‘zaki hamda yozma shaklda qayta bayon qila olishga, boshqalarga aniq qilib yetkazib

bera olishga o'rgatish, ya'ni ularda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, mantiqiy, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'quvchilarning o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olishilarini va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida o'sib ulg'ayishlari uchun shart-sharoit yaratish ona tili fanini yanada rivojlantirish maqsadlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar muloqot qilish natijasida dunyoni yanada kengroq anglab boradilar. O'quvchilarda kommunikativlik kompetensiyasini shakllantirishning yana bir muhim xususiyati shundaki, Milliy o'quv dasturiga ko'ra ona tilidan o'quvchilarda fanga oid lingvistik kompetnsiyalarni tarkib toptirish lozimligi belgilangan. Lingvistik kompetensiya esa kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Shunday ekan, o'quvchilarning lingvistik malakalarini rivojlantirish kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Lingvistik kompetenlikka ega bo'lgan o'quvchi pragmatik kompetensiyaga, ya'ni turli xil nutq vaziyatlaridan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kommunikativ kompetensiyaning zarur darajasi o'qitish bosqichi va maqsadi bilan belgilanadi. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ta'limning har bir bosqichida alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning yoshi ulg'aygan sari ularning kompetentligiga qo'yilgan talab ham ortib boraveradi. Bundan tashqari dars jarayonidagi tillararo integratsiya kommunikativ kompetensiyani, ya'ni ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda xorijiy tilda muloqotga kirisha olish layoqatini yanada rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida komminikativ kompetensiyani shakllantirishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilmay turib natijaga erishish qiyin. Ular quyidagilar:

- o'quvchilardagi qo'rquv hissi. Qo'rquv hissi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ko'rsatishga halaqt beradi. Ichki qo'rquvga ega bo'lgan o'quvchilarni doimo "xato qilib qo'ysamchi?", "mening fikrim xato bo'lsachi?" kabi savollar qiyinaydi.

- o'quvchining tortinchoqligi. Odatda, tortinchoq o'quvchilar muloqot jarayonida juda passiv bo'ladilar. Ularda tortinchoqlik bolalikda paydo bo'ladi. Agar bunday o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmasi to'g'ri shakllantirilmasa, ularda tortinchoqlik uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin.

- o'quvchining darsdagi nofaolligi;

- o'quvchilarning o'z shevasida gapireshi.

Kommunikativ mashqlar nutq malakalarini shakllantirish va til bo'yicha amaliy bilimlarning eng yuqori darajasini ta'minlaydigan ijodiy mashq turi. hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali bo'lgan yagona mashqlar kommunikativ mashqlar va xususan, ijodiy xarakterdagи kommunikativ mashqlardir.

Kommunikativ mashqlar ba'zi talablarga javob berishi kerak.

- mashqlar aniq nutq vaziyatini, tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarni ifodalashi kerak;
- mashq sharti tushunarli, topshiriq aniq bo'lishi kerak;
- mashqlar o'quvchilarni tezda charchatmasligi va davomiyligi 3-5 daqiqadan oshmasligi kerak.

Kommunikativ mashqlarni bir nechta turlarga bo'lish mumkin:

1. Og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (matnni qayta so'zlab berish, matn yoki video ketma-ketlikni qayta aytib berish, aytidayotgan vaziyatga nisbatan fikr bildirish, matnni davom ettirish va boshqalar).

2. Yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (berilgan tayanch so'zlar asosida matn tuzish, rasmlar asosida matn tuzish, aralash berilgan gaplardan matn tuzish va boshqalar).

3. O'quvchilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar (alohida so'z va so'z brikmalarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish, matnning ayrim qismlarini o'qishni mashq qilish, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagogning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi uning kasbiy va shaxsiy xususiyati sifatida belgilanib, bu pedagogning pedagogik faoliyatini ta'lim

oluvchi shaxsiga nisbatan qadriyatli insonparvarlik munosabatni shakllantirish asosida amalga oshirishga tayyorligida ifodalananadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzlucksiz ta’lim Milliy o‘quv dasturlari. – Toshkent, 2021. -252 bet.
2. V.Suxomlinskiy. “Tarbiya haqida”. Toshkent.1977 yil.18-bet.
3. Азимова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
- 4.Eraliyeva D.O. Ta’limda til kompetentligini shakllantirish rivojlantirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan: 2019. -97 b.
5. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени- ни магистра. –Челябинск, 2019. 147 с.
6. Пыркова Т.А. Формирование лингвистической компетенции студентов неязыкового вуза средствами театрализации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Екатеринбург, 2018. -166 с.
7. Юсупов А. Устные коммуникативные упражнения с использованием современных технологий в изучении иностранных языков. //O‘zbekistonda xorijiy tillar ilmiy metodik electron jurnal. №2/2017.
- 8.A.R.Soxibov .”Umumiyl pedagogika”.Darslik. Qarshi.”Nasaf” 2023yil. 22,0b.t
- 9.A.R.Soxibov .”Umumiyl pedagogika”.O’quv qo’llanma. Qarshi.”Nasaf” 2023yil. 22,0b.t
- 10.A.R.Soxibov .”Pedagogik fikrlar taraqqiyoti”. Darslik. Qarshi.”Nasaf” 2023yil. 22,0b.t